

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari	144
M.O.Gopirov	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США	148
Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati	153
K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha)	157
O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari	172
D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida)	180
E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini	186
Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
N.O'.Komilova	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
M.M.Atajonov	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari	217
A.A.Isayev, S.A.Ergashev	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	220
M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini	224
D.M.Abduraxmonov	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	230
D.B.Kosimov	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari	234
H.N.Naimov	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida)	239
M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar	243
U.Sh.Uktamov	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
S.M.Xudoyberdiyeva	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
T.D.Komilova	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish	257

**TABIATDAN OQILONA FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING TARIXIY-
EKOLOGIK JIHLARI**

**ИСТОРИКО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И
ОХРАНЫ ПРИРОДЫ**

**HISTORICAL AND ECOLOGICAL ASPECTS OF RATIONAL USE AND PROTECTION
OF NATURE**

Maxkamov Elyorbek G'ayratovich¹

¹Farg'ona davlat universiteti,
eografiya kafedrasida dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Hakimova Shahnoza Shoirjon qizi²

²Farg'ona davlat universiteti
geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tabiatdan va uni resurslaridan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari Farg'ona vodiysi misolida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "muqaddas qadamjoy"larni tabiatdagi barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati taxlil qilingan.

Аннотация

В данной статье историко-экологические аспекты рационального использования и охраны природы и ее ресурсов рассматриваются на примере Ферганской долины. Также проанализировано значение «Священные места» в обеспечении их устойчивости в природе.

Abstract

In this article, the historical and environmental aspects of the rational use and protection of nature and its resources are examined using the example of the Fergana Valley. The significance of "Holy Places" in ensuring their sustainability in nature is also analyzed.

Kalit so'zlar: muqaddas qadamjoylar, etnoekologik qadiryatlar, barqaror rivojlanish, madaniy landshaft, antropogen landshaft, noosfera.

Ключевые слова: сакральные места, этноэкологические ценности, устойчивое развитие, культурный ландшафт, антропогенный ландшафт, ноосфера.

Key words: Holly places, ethnoecological values, sustainable development, cultural landscape, anthropogenic landscape, noosphere.

KIRISH

Tabiat bilan jamiyat o'rtasida yuz beradigan o'zaro aloqadorlik va munosabatlar tizimi hozirgi davrga kelganda ancha murakkablashdi. Bu aloqadorlik o'rnini jamiyatning tabiatga ko'rsatayotgan kuchli ta'siri va bosimi egalladi. Natijada, tabiatda turli xil ekologik muammolarning kuchayishi va uning ijtimoiy-ekologik muammolarga aylanib borishi kuzatilmoqda. Bu holat, aholi zichligi yuqori, xo'jalik tarmoqlari intensiv rivojlangan hududlarda geoekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday hududlarni barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasi BMTning qator konferensiyalarida alohida e'tibor qaratilmoqda. Barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy tamoyillaridan biri sifatida - «tub joy aholi foydalanadigan an'anaviy bilimlar va qadriyatlarini, resurslardan foydalanish usullari» ekanligi ta'kidlanmoqda⁹.

Jahonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning yo'nalishlaridan biri sifatida mahalliy aholining tabiatdan foydalanish ya'ni, etnoekologik madaniyatiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon xalqlarining tabiatdan muvozanatli, tejamkor foydalanishga yo'naltirilgan ko'nikma, malaka, odat va ta'qiqlarni o'zida mujassamlashtirgan etnoekologik madaniyatdan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi maskanlarini hududiy tashkil etishda, rekreatsion obyektlar to'rini takomillashtirishda foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi.

⁹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>;

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mahalliy aholining tabiatdan foydalanishda ko'p asrlik an'analar, ularning hududiy ijtimoiy-geografik va ekologik jihatlari tadqiq etish dolzarb masallardan biri hisoblanadi. Aholi etnoekologik madaniyatining ijtimoiy-geografik jihatlari tadqiq etish muammolarini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari J.X.Styuard, X.C.Konklin, L.S.Berg, P.N.Savitskiy, B.V.Andrianov, V.I.Kozlov, L.N.Gumilev, A.G.Drujinin, K.P.Ivanov, I.Y.Gladkiy, V.N.Kalutskov, M.V.Ragulina va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Xalqimizning tabiatdan foydalanish an'alarini o'rganishning ijtimoiy-geografik jihatlari A.F.Middendorf, D.N.Qashkarov, H.X.Xasanov, R.U.Rahimbekov, A.A.Rafiqov, A.I.Jabborov, A.A.Ashirov, U.Abdullaev, A.A.Qayumov, R.Ballieva, A.S.Soliev, A.N.Nigmatov, F.H.Hikmatov, YU.I.Ahmadaliev, N.Komilova va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

Muqaddas hudud va obyektlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hudud sifatida tashkil etilish O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi (2001) Qonunida belgilangan. Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilgan alohida tarixiy, ilmiy, badiiy e'ki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari hududida alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tashkil etilishi mumkin.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, muzey-qo'riqxonalar, tarixiy manzilgohlar ko'rinishida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda tashkil etiladi. Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish tartibi hamda ularni saqlash tartiboti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tabiat va uning boyliklarini avaylab asrash ajdodlarimizning zardo'shtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan targ'ib qilingan. Qadimdan «muqaddas daraxt», «muqaddas g'or», «muqaddas buloq», «muqaddas joy» deb e'lon qilingan tabiatning «aziz» joylari qimmatli, noyob va manzarali obyektlarning tabiiy holda hanuzgacha saqlanib qolishida ijobiy rol o'ynab kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Farg'ona vodiysini Markaziy Osiyoning durdonasi deb atalishida yuqoridagi yo'l bilan muhofazaga olingan noyob, qimmatli va xilma-xil tabiiy obyektlarning saqlanib qolingani ham sabab bo'lsa kerak. Farg'ona vodiysida bunday noyob va qimmatli hududlarni «muqaddaslashtirish» yordamida saqlab qolishga erishilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi aholi ming yillar davomida shariat qonunlari bo'yicha tabiiy resurslardan oqilona, hamkorlikda foydalanib keldi. Hamyurtimiz ulug' alloma Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, er va suvdan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Fiqh kitoblarida keltirilishicha, har bir jon egasining - odam, hayvon, o'simliklarining suvdan foydalaniladigan ulushi "shirb" deb ataladi. Demak, bu ta'kidida idishga quyib qo'yilgan suvdan tashqari barcha suvlar mazkur hududda yashayotgan jami insonlarga tegishli ekanligi aytilmoqda. Bundan tashqari, daryo va ariqlar suvi yo'lini to'sishning huquqiy asosini belgilab beruvchi quyidagi band ham diqatga sazovordir: "Agar suvni bog'lab to'xtatmasa eri suv ichmaydigan bo'lsa ham – suvning yuqorisidagi kishi suvni bo'g'ib to'xtatishi man qilinadi, illo sheriklarining roziligi bilan to'xtatasa durust bo'lur." Bundan ko'rinib turibdiki, ming yillar davomida yagona mintaqada yashab kelgan Markaziy Osiyo xalqlarining bir daryo suvidan foydalanishning huquqiy asosi allaqachon yaratilgandir. Bunga amal qilish esa, xalqlarimizning uzoq vaqt bir hududda tinch-totuv, to'q va farovon yashashlarini asosiy shartidir.

Qolaversa, tog'li hududlardan foydalanishning Markaziy Osiyo xalqlari uchungina xos bo'lgan diniy-huquqiy usullari shakllangan. Bunga ko'ra, tog'li hududlarda nozik tabiatni asrashning alohida jihatlari yaratilgan. Masalan, tog'da daraxt kesish, hayvonot dunyosiga zarar etkazish, tuproqqa ishlov berish qa'tiyan man etilgan. Kishilarning bunday ta'qiqqa amal qilishlari uchun daryolarning yuqori qismlaridagi tog'li hududlar "muqaddas qadamjoy"larga aylantirilgan. Bunday ekofil dunyoqarash ming yillar davomida o'lkamiz tabiatini musaffo saqlanishiga, daryolarning tekislik hududlariga bir ma'romda obihayot berib kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Avlodlar an'alarini unutish tarixni unutish kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, Farg'ona vodiysining ko'pchilik buloqlarida yashovchi qora baliq (marinka) «muqaddas» baliq hisoblanib, ularni ovlash man etilgan. Bunga sabab, birinchidan, qora baliqlar buloq suvidagi turli zuluklar, qisqichbaqasimonlar, suv o'tlarini eb hayot kechiradilar. Ular buloq suvini toza va sifatli bo'lishiga hamda buloq ko'zlarini o'tlar bilan qoplanmasligiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, baliqning o't pufagi, qornidagi qora parda va tuxumlari g'oyat zaharli bo'lganligidan,

ular har qanday organizmga qattiq tapsir qiladi. Baliq ovlashni «taqiqlash» orqali ikki vazifa bajarilgan, yapni buloqda doimo sifatli suv bo'lgan va kishilarning baliqdan zaharlanib qolishini oldi olingan.

Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan Farg'ona vodiysida landshaft qonuniyatlariga mos tushuvchi hamda mahalliy dehqonlar extiyojini qondiruvchi tabiatdan foydalanishning madaniy etnik anʼanalalar ham shakllangan. Dehqonchilik sohasidagi turli usul va yoʻnalishlar neolit va eneolit davrlarida yaratilgan boʻlib, uzoq tarixiy vaqt davomida takomillashib borgan. Landshaftlarda yuz bergan oʻzgarishlarni oldini olish uchun amalga oshirilgan tadbirlarni takomillashib borishi oqibatida ushbu bu mintaqada oʻziga xos tabiiy muvozanat shakllanib bordi.

Oʻzbekiston hududida uzoq yillar davomida foydalanib kelinayotgan voha landshaftlarida tabiiy hududning xususiyatlari eʼtiborga olingan. Bunga sabab ajdodlarimiz tomonidan yer, suv resurslaridan, yaʼni tabiatdan oqilona va uygʻun foydalanib kelinganligidir. Bu madaniy-etnik anʼanalardan foydalanish joylarda ekologik muammolarning paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymagan (Abdulhamidov, 1981; Ahmadaliev, Abdugʻaniev, 1995). Oʻzbek dehqonlari tomonidan yaratilgan, ayniqsa Fargʻona vodiysida keng tarqalgan etno-ekologik qadriyatlarning quyidagi yoʻnalishlarini ajratish mumkin:

- sugʻoriladigan va lalmikor erlar, dalachilik, bogʻdorchilik hamda va polizchilikda foydalaniladigan erlarni tanlash, nisbatini aniqlash;
- tabiiy landshaftlar sharoitiga mos ravishda ekin turlarini tanlash madaniyati;
- sunʼiy sugʻorish usullaridan foydalanish madaniyati va erga ishlov berish;
- sugʻoriladigan ekin maydonlari atrofida, zax koʻtariladigan joylarda suvni koʻp bugʻlatadigan «biologik» drenajlar - tol, terak, jiyda, qayragʻochlardan iborat boʻlgan yashil ihotazorlarni barpo qilish va boshqalar.

Landshaftlardagi tabiiy tiklanish jarayonlari antropogen «tazyiq» dan hosil boʻlgan oʻzgarishlar tezlig va intensivligiga mos boʻlmasa tabiiy muvozanatda buzilishlar yuz beradi. Agar tabiiy muvozanatni qayta tiklanishiga yordam beruvchi tadbirlar oʻz vaqtida amalga oshirilmasa landshaft oʻzining tabiiy qiyofasini va ahamiyatini yildan-yilga yoʻqotib boradi. Buning uchun landshaftdagi tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keluvchi jarayonlarning oldini olish yoki ularning yanada rivojlanishini sekinlashtirishga yordam beruvchi tadbirlar amalga oshiriladi. Dinamik muvozanatni tiklash landshaftni avvalgi tabiiy qiyofasini aynan qayta vujudga keltirish deb tushunilmaydi. Chunki landshaftlardagi qisqa vaqt davomida yuz bergan barcha oʻzgarishlar qaytarilmasdir.

XULOSA

Geokomplekslar turli vazifalarni (muhit yaratuvchi, resurs saqlovchi, obyektini himoya qiluvchi, rekreatsiya, axborot va boshq.) bajarish xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar bir-biri bilan uzviy bogʻlangan hamda bir-birini toʻldiradi. Geokomplekslarni optimallashtirish va ulardan foydalanish maqsadidan kelib chiqib baho berishda bu vazifalar ichidan eng asosiysini ajratib olish muhimdir. Tabiiy landshaftlarning xilma-xillik tizimi mintaqalar boʻyicha qanchalik toʻliq barpo etilsa, shu hududda shakllangan maqsadli ekologik muvozanatni shunchalik uzoq yillar davomida saqlab turish uchun qulay imkoniyat yaratiladi.

Fargʻona vodiysida sugʻoriladigan erlar ekin maydonlarining uchdan ikki qismini tashkil etib, ularga daryo vodiylari tanlangan, daryolarning konussimon yoyilmalarini yuqori qismlari esa donli va yem xashak ekinlari uchun yoki yaylovlar uchun ajratilgan. Vohalarda ekinzorlar kichikroq maydonlarni egallagan va ularda xilma-xil ekinlar etishtirilgan. Xilma-xillik landshaftlarning barqarorligini taʼminlaydigan omildir. Har bir ekinzor maydonlari atrofida tol, terak, jiyda, turongʻil, qayragʻochlardan iborat boʻlgan daraxtzorlar barpo etilgan.

SHuning uchun ham mashhur Rim jamoat arbobissitseron "oʻrmonlarni yoʻqotuvchi kishilar jamiyatimiz dushmanlaridir» degan edi. «Serdaraxt qishloqda bemor kam boʻladi» degan naql bor. Bu soʻzlar bejiz aytilmagan. Bundan tashqari, daraxtzorlar landshaftni shakllantiradi, unda estetik manzara yaratadi, mikroiklimni boshqardi, havo harorati tebranishini yumshatadi, nisbiy namlikni orttiradi, shamol tezligini susaytiradi, tuproq eroziyasining oldini oladi, tuproqdan mahsuldorsiz bugʻlanishni ozaytirib uni shoʻrlanishdan saqlaydi, tabiiy muhitning sanitariya-gigiena holatini sogʻlomlashtiradi, turli hayvonlar (mikroorganizmlar, hasharotlar, kichik sutemizuvchilar, qushlar va boshq.) uchun boshpana boʻladi, daryo va kanal qirgʻoqlarini mustahkamlaydi, suvni tozalaydi, qurilish materiali hisoblanadi va boshqalar. Demak, oʻsimliklar tabiiy muhitni muvozanatini saqlashda muhim vazifani bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduganiev O.I.. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoekologik asoslari (Farg'ona vodiysi misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
2. Abdulahatov N. Farg'ona ziyoratgohlari // "Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - T.2004. 54-b.
3. Ahmadaliev Y. Etnoekologiyaning dolzarb masalalari. Farg'ona, 1997.- 34b.
4. Axmadaliev Y., Jo'raboeva X., Komilova N. Farg'ona vodiysi tog'oldi tekislik xududlaridan foydalanishning tarixiy va mahalliy xususiyatlari. Tog' va tog' oldi hududlaridan foydalanishning geografik asoslari// Ilmiy amaliy konferensiya materiallari: -Toshkent, 2002.- Toshkent, -B. 110-112.
5. Ahmadaliev Y., Komilova N. Farg'ona vodiysida an'anaviy xo'jalik yuritishning ekologik asoslari. Farg'ona davlat universiteti professor-o'kituvchi va talabalarning an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Farg'ona, 2002.-B. 48-50.
6. Ahmadaliev Y., Djo'raboeva X., Komilova N. An'anaviy sug'orish tizimida joyning geografik xususiyatlarini hisobga olinishi// O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti.-Toshkent, 2003. №23.-B. 199-200. (11.00.00; № 6)
7. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi -T.: "O'qituvchi", 1994.-320b.
8. Jabborov I. O'zbeklar - T.: "SHarq", 2008.- 240 b.
9. Komilova N. Tabiatdan foydalanish an'alarini geografik o'rganishda tarixiy yondashuv// FarDU ilmiy xabarlari.-Farg'ona, 2017. -№ 5. –B. 27-29.
10. Komilova N. Issledovanie geograficheskix aspektov etnoekologicheskoy kultury (na primere Ferganskoy doliny)// European applied sciences. ORT Publishing Schwieberdinger Str. 59. 70435. Stuttgart, Germany. 2017. -№4.- S.66-68
11. Ogudin V.L. Strana Fergana. –M.: 2002.- 178 s.
12. Xomidiy H. Avesto fayzlari. - T.: 2001.- 96b.
13. Xomidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. - T.: "SHarq", 1999.- 352b.